

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

НИЗОМИЙ НОМИДАГИ ТОШКЕНТ ДАВЛАТ  
ПЕДАГОГИКА УНИВЕРСИТЕТИ



**КАДРЛАР ТАЙЁРАШ МИЛЛИЙ  
ДАСТУРИ – “ЎЗБЕК МОДЕЛИ”НИНГ  
АЖРАЛМАС ҚИСМИ**

**ЁШ ОЛИМЛАР ВА ТАЛАБАЛАР  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ КОНФЕРЕНЦИЯСИ**

*2016 йил 15 марта*

**1-ҚИСМ**

**Тошкент 2016**

## O'ZBEK MUMTOZ MUSIQASI BO'YICHA BAKALAVRLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH MUAMMOLARI

Narziqulov N.-talaba, Hasanova N., Abilov M. -o'qituvchilar, JDPI

illiy ma'naviyatning ravnaqi va umuminsoniy ma'naviyat darajasiga ko'tariishining eng muhim omillaridan biri jamiyatda yashovchi kishilarning, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodning ongiga milliy-ma'naviy qadriyalarimiz timsoli bo'lgan tilimiz, tariximiz, ko'hna tarixiy yodgorliklar, madaniyat, san'at, urf-odat va marosimlarga to'g'ri munosabat, ularni qadrlash, asrabavaylash, rivojlantirish uchun intilib yashash hissini tarbiyalash, boyitish va mustahkamlashdan iboratdir.

Shu jumladan xalqimizning milliy-ma'naviy qadriyatlari tizimida muhim o'rinn tutuvchi o'zbek mumtoz musiqa san'atini yosh avlod ma'naviyatiga singdirish, ta'llimining barcha bo'g'infarida, shu jumladan pedagogika oiliy o'quv yurtlarining musiqiy ta'lim ixtisosligi bo'yicha ta'lim oluvechi bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarining mukammal bilim, tushuncha va amaliy ijrochilik malakalarini egallashlariga yerishish ta'lim-tarbiya oldiga qo'yilayotgan ijtimoiy-pedagogik talablarni bajarish borasida muhim vazifalardan hisoblanadi.

Hamma davrlarda ham musiqa san'ati kishilar hayotida muhim o'rinn tutib, o'zida xalq ruhiyati, orzu-intilishi, hayotiy qarashlari, hissiy kechimularini badiiy ifoda etishi bilan yuksak ijtimoiy-tarbiyaviylik kasbi etib kelgan. Prezident I.Karimov musiqa san'ting inson hayotidagi o'rnii va roliga baho berar ekan shunday ta'kidlaydi "Sharq musiqasi-Sharq folsafasi, Sharq dunyosining uzviy bir qismidir. Sharq musiqasining jahon merosida tutgan o'mi benihoya buyuk. Bu musiqa ming-ming yillardan beri odamlar dilini poklab, ularni ruhan yuksaltirib kelmoqda. O'zingin yuksak jozibasi bilan dunyo madaniyatiga ozuqa berib, umumibashariy qadriyatlarga munosib hissa qo'shamoqda".

Musiqa ta'limini milliy asoslarda shakllantirishning ijtimoiy talabi sifatida umumita'lim maktablarining birinchi sinfigan boshlab o'quv dasturiga o'zbek xalq musiqa merosiga mansub kuy-qo'shiqlar, xalq musiqasiga asoslanib yaratilgan zamona'y jaror va ushubdag'i ijod namunalari bilan bir qatorda o'zbek mumtoz musiqasiga keng o'rinn berilgan. Ayni paytda umumita'lim maktablaridagi "Musiqa madaniyati" o'quv mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarini dastur va darsliktarga kiritilgan mumtoz kuy va qo'shiqlar bilan tanishitirib borish, kerakli bilim va tushunchalari orqali o'quvchilarda ushbu san'at turiga nisbatan to'g'ri munosabatni shakllantirishga qay darajada erishilmoqda degan savol tug'ilishi tabtiy. Bu o'rinda mumtoz asarlarini tinglash, kuylash, tahsil qilish jarayonida ularning g'oyaviy- badiiy mazmuni, badiiy obrazlarini tasavvur qilish, kuy va qo'shiq matnnini o'zarboz mutanosibligini, sinxronlik xususiyatini anglash, mukammal ijod va nodir iste'dod mahsuli bo'lgan asarni mumtezlik xususiyatini belgilovchi sifatlarini hamda kuy, ohang, nofa, bezak, qochirim kabi milliy ijrochilikka xos unsurlarni o'quvchilar tomonidan to'g'ri idrok etish, fahmlash, farqlash, baholay olish, kuy-qo'shiqlarni milliy cholg'ular ijrosidagi o'ziga xos naftosatini his eta olishlari nuqtai-nazaridan darslarni nazariy, amaliy va metodik jihatdan maqsadga muvofiq tashkil qilinishi ko'zda tutilmoqda.

Pedagogik kuzafov va tahflilar aksariyat umumita'lim maktablarida "Musiqa madaniyati" darslari ta'lim standarti talabari darajasida o'tilmayotganligi, bu o'rinda musiqa o'qituvchilarining malakaviy tayyorgarliklari qoniqarli darajada emasligi, ayniqsa, o'zbek xalq musiqa ijodiyoti, uning eng mukammal va murakkab turi bo'lgan mumtoz musiqa san'ati bo'yicha yetarli bilim va malakaga ega yemasiqlikti asosiy muammino yekanligini ko'rsatmoqda.

Zero, musiqa darslarida o'quvchilarga milliy musiqiy meros, uning janurlari, ijro uslublari, mumtoz asarlarning o'ziga xos badiiy xususiyatlari to'g'risidagi nazariy va amaliy tushuncha, bilimlarni berishda musiqa o'qituvchilarini asosiy sub'yektilar bo'lib, ularning ushbu yo'nalishidagi kasbiy malakafarini hal qiluvchi rol o'ynaydi va kuzatilgan kamichiliklarni bartaraf yetilishiga yerishishini kafolatlaydi.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, oly pedagogik ta'lim jarayonida bo'lgajak musiqa o'qituvchilarini maktab fadilityatiga tayyorlashda 1-7 sinif fan dasturi va darsliklarining yil va chorak mevzulari bo'yicha o'quvchilar o'zlashtirish lozim bo'lgan nazariy, amaliy bilim va tushunchalar, kuylash, tinglash uchun tassiya etilgan asarlar "An anaviy va hraq qo'shiqchiligi", "O'zbek mumtoz qo'shiqchiligi" sanlarini o'tilishida inobatga olinishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bo'lgajak musiqa o'qituvchilarini o'zbek halq mumtoz musiqasidan yaxshi xabardor, kasbiy tayyorgarlikka yegaligi o'quvchilarda xalq musiqa merosi, uning rivojlanishi, turlari, mahalliy ijrochilik uslublari, mumtoz musiqalarning milliy musiqa madaniyatimizda tutgan o'mi va ahamiyati, mashhur ijodkorlarini haqida yetarli bilimlarga ega bo'lishi va ularda milliy musiqamizga barqaror qiziqishni hamda musiqa darslarini pedagogik va metodik jihatdan yuqori samaradorlikka yerishishini ta'minlaydi. Buning uchun oly pedagogik ta'lim tizimida bir qator masalsalarni hal qilish lozim. Bular:

1.Pedagogika oliy o'quv yurtlarini "Musiqiy ta'lim " yo'nalishi o'quv rejasidagi "An'anaviy va halq qo'shiqchiligi", "O'zbek mumtoz qo'shiqchiligi" fanlariga ajratilgan o'quv soatlari xajmini ko'paytirish va u!arni bitta fan tarkibida umumifashtirish;

2.Mazkur fanlarni o'qitish mazmunida umumta'lim maktabtari 1-7 sinf dasturi va darsliklariga kiritilgan mumtoz kuy-qo'shiqlar va nazariy ma'lumotlar ko'zda tutilgan ta'larning pedagogik va metodik tizimini ishlab chiqish;

3.O'zbek mumtoz musiqasi asoslari, ijrochilik an'analari, uslublari to'g'risida batafsil ma'lumotlar jamlangan ilmiy-uslubiy manbalar bilan ta'minlash;

4.O'zbek mumtoz musiqasi bo'yicha to'plamlar, asarlarning nota yozuvlari, musiqiy yozuvlar (fonoteka), mashhur ijrochilar (xonandalar, hofizlar, cholg'uchi - sozandalar) haqida ma'lumotlar bilan ta'minlash;

5.Tingaish va kuylash uchun namunalarni tanlashda sinf, guruh, talaba, o'quvchilarning imkoniyatlari, ovoz diapazoni, musiqiy tayyorgarliklariga ko'ra asarlarni tanlashga qo'yildigan pedagogik talablarni ishlab chiqish;

6.Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini darslarni texnologik yondoshuvlari asosida qiziqaril tashkil etishga yo'naltiriigan tavsiyalar bilan qurollantirish;

7.Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini o'zbek mumtoz va maqom yo'nalishlari bo'yicha turli ko'rik-tanlovlar, musiqiy -ommaviy tadbirdarga faol ishtirok yetishlariga keng imkoniyatlar va shart-sharoitlar yaratish;

8.Talabalarni umumta'lim maktablari bilan o'zaro ijodiy hamkorligini tizimli yo'lga qo'yish, o'quv va pedagogik amaliyotlar jarayonida bajariladigan ishlar mazmunida mumtoz musiqa bilan amaliy ishlash ko'nikma va malakalarini yegallashlariga ye'tibor qaratish;

9. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda sinfdan tashqari faoliyatga, ya'ni badiiy havaskorlik va madaniy ommaviy tadbirdarga ye'tiborni kuchaytirish, mustaqil va ijodiy ishlashlari uchun shart-sharoitlarni yaratish.

Ta'kidlab o'tilgan muammolarni ijobiy yechimi bo'lg'usi musiqa o'qituvchilarini muktab faoliyatiga kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish bilan umumta'lim maktablarida ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb yetadi. Barkamol avlodni tarbiyalash, milliy-ma'naviy, musiqiy-yestetik madaniyatini shakllantirish yanada yuqori darajaga ko'tarishga va shu orqali jamiyatimizning ma'naviy-ma'rifiy poydevorini mustahkamlash borasidagi vazifalarni muvaffaqiyatlari amalga oshirishda yangi ufqlar ochadi.